www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Muhammad tarag'ay Ulug'bek Akademiyasi Haqida

Boburjon To'ychiyev
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Anotasiya:XIV-asrning qomisiy olimlaridan buyuk astranom,matematik Olim va uning o'z davrida bir necha kashfiyotlar qilishiga katta xizmat qilgan Va o'z atrofiga bir necha mashhur olimlarni jamlagan Ulug'bek akademiyasi Uning faoliyati haqida malimot beriladi.
Kalit so'zlari: Akademiya , Shohruhmirzo ,Gavharshodbegim, Boburnoma Ali Qushchi Xazrat Bashir Muhammad II Go'ri amir Bibixonim Abdulaziz ,Abdullatif, kutubxona Rasadxona Qozizoda Rumiy V.L Vyatkin, Zijji Ulug'bek Universitet Z.M Bobur Samarqand.

Muhammad Tarag'ay (Ulug'bek) 1393-yili hozirgi Eron islom respubilkasining Sultoniya shahrida tug'ilgan otasi shohruh mirzo hirot shahri hokimi edi. Onasi Gavharshodbegim bo'lib bazi manbalarning ma'lumot berishicha Muhammad tarag'ayning ismini bobsi Amir temur eron va iroq hududlaridagi yurishdan g'alaba bilan qaytgach Ulug'bek deb nom beradi manosi Ulug' kishi yoki buyuk Inson degan manoni anglatadi Mirzo Ulug'bek bolaligidan ancha bilimdon va o'qimishli bo'lgan va ko'proq aniq fanlarga va qiziqan Ulug'bekdagi qobilyatni bobosi Temur sezgandan keyin uni Samarqanddagi saroyga o'zi bilan olib ketadi u yerda Mirzo ulug'bek Saroy mulk xonim qaramog'ida tarbiya ko'radi natijada saroydagi ilm ahli bilan bir davrada o'tiradi Ulug'bekning 10 yoshga yetganida 1404-yili Muhammad sultoning qizi O'gaybekaga uylantiradi. Temur nabirasi Ulug'bekga Toshkent , Sayram ,Jambul , Ashpara, Jeta viloyatlarini beradi. Bobosining vafotidan so'ng davlat ikki qismga biri poytaxti Hirot bo'lgan hurosonga ikkinchisi poytaxti Samarqand bo'lgan Movarounnahrga bo'linadi Shohruh mirzo huroson hokimi bo'lgan bo'lsa Ulug'bek esa Movarounnahr hokimi bo'ldi Ulug'bekning keying faoliyati juda ayanchili kechgan 15 yoshli Ulug'bek garchi hokim bo'lsada shoh malik davlatni boshqargan lekin O'trorda Muhammad jahongir va shayx Nuriddin Ulug'bek va shoh malikga qarshi 1410-yil yurish qildi ammo Shohruh mirzoning yordami bilan Ulug'bek davlati va taxti saqlab qolindi 1411-yilda Shohruh mirzo Shoh malikni hirotga olib ketadi shu davrdan boshlab Ulug'bek movarounnahrda yakka o'zi hokim bo'ladi Ulug'bek 40 yillik faoliyati davomida juda ko'p madaniy islohotlar amalga oshirdi jumladan 1417-yil Buxoroda 1420 yil Samarqanda 1432-1436 yillarda G'ijduvonda madarasalar qurdiradi va ushbu madrasalarga o'z davrining yetuk olimlari dars beradi

Bibixonim masjidi,Go'ri Amir,Shohi zinda, maqbarasi Ulug'bek davrida nihoyasiga yetdi Ulug'bek o'zi janglarga qiziqmagan bo'lsada u 1448 yilda Olouddavlani mag'lub etgan edi lekin Ulug'bek g'alabani Abdulaziz nomiga elon qiladi natijada Abdullatif bundan xafa bo'lib Otasi Ulug'bekga nisbatan dushmanlik kayfiyati uyg'onadi oxiri Abdullatif tarafdorlari otasiga qarshi gijgijlaydi bu sezgan Ulug'bek o'g'li Abdulazizning maslahati bilan hajga makka shahriga otlanadi lekin Samarqandning bir cheka qishlog'Iga yetib borgach Abdulaziz ularning orqasidan Abbos ismli choparni yuboradi u Abdulazizni kutib turish kerakligi haqida xabar beradi Natijada Abbos odamlari yordamida Ulug'bekni qo'lini bog'lab Qilich qilan boshini tanasidan judo qiladi bu 1449-yil 25 oktyabrda bo'ladi Ulug'bek 56 yoshda edi bazi manbalarda uning o'g'li Abdullatif o'z qo'li bilan o'ldirgan degan ma'lumot ham bor

Muhammad tarag'ay Ulug'bek 1420-1429 yillarda Samarqand yaqinidagi Obi rahmat tepaligida rasadxona qurdiradi uning qurulishini shaxsan o'z nnazoratiga olib ancha mustahkam qurilgan inshoot to'garak shaklda bo'lib diammetri 40-46 balandligi 30 metrni

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

tashkil qiladi.Rasadxona ichki devorlari koinotdagi barcha sayyoralar tasvirlangan va u yerda ilmiy kashfiyotlar qish uchun qullay bo'lgan Ulug'bek ilmiy izlanishlari yordami ko'plab olimlar bilan birga 1018 ta yulduzlarni va ularning joylashuvini aniqlaydi bu kashfiyoti orqali Ulug'bek "Ziji Ulug'bek " yoki "ziji ko'ragoniy" asarini yozadi Zij degani fors tilidan tarjima qilinganda Jadval manosini beradi. Bazi tarixchi olimlar ushbu asarni ulug'bekning ozi yozmagan deb aytadi lekin ushbu kitobdagi bir jumla asarni Ululg'bekning shaxsan o'zi yozganini isbotlaydi. " So'ng parvardigoro bandalarining faqiru-haqri Allohga intiluvchisi Muhammad tarag'ay ibn Shohruh ibn Temur ko'ragon bunday deydi " degan so'zlar yozilgan ko'p asrlar davomida Rasadxona topilmagan bo'lsada uni 1908-yil rus olimi V.L Viyatkin bir asarni o'qish chog'ida aniq manzilni topadi. Rasadxonadagi eng noyob topilma burchak o'lchaydigan ulkan asbob radius 40, 212 metr yon uzunligi 63 metr edi V L Vyatkin uni asbobning yarmi deb aytgan. Z.M Bobur ham rasadxona haqida Boburnoma sarida malumot bergan Nilson bu slindrsimon katta bino bo'lgan deb takidlaydi. Rasadxona o'rnida 1949-yil Marmar toshdan yodgorlik qo'yilgan keyin 1964-yil Rasadxona muzeyi qurib bitkazilgan.

Ziji Ulug'bek asarida O'lchov birliklari haqida ham malumotlar uchraydi shulardan bir "deng og'rilik o'lchovi bo'lib" rus tilidagi "денгы" so'zi ham shundan olingan degan ma'lumotlar bor Ulug'bekning ziji asariga bir necha olimlar sharx yozgan ulardan dunyo kutubxonalarida 150 dan ortiq nusxa mavjud bir so'z bilan aytganda yevropaning mashhur Universitetlarida ushbu kitobdan foydalanadi Mirzo Ulug'bekning yana bir merosi bu Ulug'bek akademiyasi bo'lib ushbu akademiya XV asrning eng kuchli ilm dargohi bo'lgan unda Quron, hadis-sharif, Islom huquqi (fiqh) va shu bilan birga aniq fanlar Matematika , geometriya , astranomiya fanlari o'qitilgan oliy ilm dargohi bo'lgan unda mashhur olimlardan Ali Qushchi, Qozizoda rumiy, Hasan chalabiy, Nasriddin tusiy kabi mashhur olimlar dars berganlar. Mirzo ulug'bek va uning shogirdlari o'lchashda qanday asboblardan foydalangan deyilsa ular taxtadan va turpoqdan foydalanganlar yani taxtani ustiga turpoq sepib tupoqa raqamlarni qayd qilib hisoblab chiqishgan.

[1]Ulug'bekning vafotidan keyin uning shogirdlari qisqa muddat ilmiy ishlarni davom etirishgan lekin Movarounnahrdagi vaziyat keskinlashib ketgach ularning bazilari g'arbiy osiyoga ketib qoldilar masalan Ulug'bekning eng yaqin shogird laridan bo'lgan Ali qushchi Usmoniylar imperiyasiga ketadi uni o'sha paytdagi Usmoniylar hukmdori Muhammad II o'z saroyida ilm bilan shug'ilanishga ko'ndiradi va hukmdorga atab bir mashur asar yozishni buyuradi Muhammad II haqida Ali qushchi o'z asarlarida ilmni sevadigan ilmli kishilarni hurmat qiladigan va shu bilan birga aniq va tabbiy fanlarga qiziquvchi odam deb tariflaydi Ali qushchi Muhammad IIga atab "Risolayi Muhammadiya" asarini yozib Sulton Muhammad IIga topshiradi va Usmoniylar imperiyasidagi madrasalarda va masjidlarda talim beradi bazi manbalarda Ali qushchi Ulug'bekning "Ziji Ko'ragoniy" asarining nusxasini Muhammad IIga sovg'a qilgan deb ma'lumot berilgan lekin Usmoniylarning keyingi hukumdorlari davrida ushbu mashhur asar nusxasini Ispaniya hukmdorlariga hadya sifatida berib yuborilganligi takidlanadi. Mirzo ulug'bekning Samarqand shahrida kutubxonasi bo'lgan ushbu kutubxonada 15 ming yaqin turli sohalarga oid kitoblar bo'lgan u bir necha xonalardan iborat bo'lib ularda malum bir fanga oid kitoblar saqlangan Ulug'bek kutubxonasining keying taqdiri juda achinarli bo'lib malumotlarga qaraqanda Ali qushchi kutubxonani xazrat bashir qishlog'iga ko'chirgan lekin kitoblar ko'pligi bois uni hamasini ko'chirish imkoni bo'lmagan deyiladi.

Bazi rivoyatlarga ko'ra Ali Qushchi kitoblarni Xazrat Bashir qishlog'i yaqinidagi Niyoztepa tepaligidagi g'orlardan biriga yashirib ketgan deyiladi lekin Ulug'bek akademiyasini qoldiqlarini topishga urunishlar bizning zamonamiz olimlarida bo'lgan Samarqand davlat universiteti professori Ahmad xatipov boshlagan lekin o'ziga hamkor topolmagach izlanishlarni to'xtatgan

[1] Abdumanon Abdurahmonov// Ulug'bek Akademiyasi

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

bir so’z bilan aytganda Ulug’bekning eng yaqin shogirdlaridan biri edi va u ustoziga uning qoldirgan ilmiga nisbatan shu asarlarni yo’qolib ketmasligini oldini olgan deb tushunishimiz mumkin lekin Ulug’bekning ulkan ilmiy merosi saqlanib qolingan bo’lsayam ushbu asarlar haligacha topilmadi. Olamni o‘rganish, uning sir-asrorlaridan voqif bo‘lish - insonning Yer yuziga kelishdan maqsadini aniqlab berishdek dunyoqarash vazifasini bajarishi bilan muhim hisoblanadi. U insonni cheksiz Koinotning bir zarrasi va milliardlab yillar davom etgan uning evolyutsiyasining mahsuli ekanligini, u yashagan umr Koinotning yoshi oldida atigi bir daqiqa ekanligini, har bir insonning "bir zumlik" hayotga kelishi mo‘'jizaviy bir holligini va bu "bir zumlik" umrni pala-partish emas, balki buyuk maqsadlarga qaratib yashash zarurligini, bu ulug‘ nomga dog‘ tushirmay yashash lozimligini sezdirishi bilan beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, insonni o‘z hayotini, boshqalar taqdiri va shaxsini qadrlashga, tabiatning nodir in'omi - hayotga yengil-elpi qaramaslikka, buyuk ezgu maqsadlarni ko‘zlab ish tutishga, o‘z ijobiy faoliyati bilan uning mazmunini boyitishga, sermazmun qilishga undaydi.[2]

[3]Mutrubi Samarqandiyning ma’lumotiga ko`ra, Samarqanddagi Ulug`bek madrasasida toliblar diniy bilimlar bilan bir qatorda adabiyot, metafizika, arifmetika, geografiya va boshqa dunyoviy fanlarni ham o`rganishgan. Muallifning yozishicha, geografiya fani ayni Ulug`bek tuzgan xarita yordamida o`rganilgan.

Mirzo Ulug`bek yaratgan Samarqand astronomiya maktabining ushbu fan rivojiga qo`shgan o`lkan hissasi dunyo olimlari tomonidan keng tan olingan. «Ziji jadidi Ko`ragoniy» asari XVII asrda Oksfordda ingliz tiliga va keyinchalik bir qancha sharhlar bilan dunyoning boshqa tillariga ham tarjima qilingan. 1648-yilda astronom Yan Gaveliy tomonidan Polshada chop etilgan «Yo`lduzli osmon katalogi»ga dunyo astronomlarining ramziy yigilishini tasvirlovchi gravyura ilova qilingan bo`lib, undan dunyoning mashhur olimlari qatoridan Ulug`bek ham o`rin olgan. «Ziji jadidi Ko`ragoniy»da keltirilgan yo`lduzlar jadvali uzoq vaqt davomida dunyodagi eng yaxshi qo`llanma sifatida foydalanib kelindi va hozirgi vaqtda ham u o`zining ilmiy-tarixiy ahamiyatini yo`qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdumanon Abdurahmonov// Ulug’bek Akademiyasi
2 https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/mirzo-ulug-bek-va-uning-akademiyasi

31https://geografiya.uz/dunyoni-urganish/274-mirzo-ulugbek.html

[2] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/mirzo-ulug-bek-va-uning-akademiyasi
[3] https://geografiya.uz/dunyoni-urganish/274-mirzo-ulugbek.html